

Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2017 yil yanvar-iyun (dastlabki ma'lumot)



Ish haqi. 2017 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

• ta'limda 915 ta muassasada 54791 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 47,0%ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 283401643,7 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 44,0 %ni) tashkil etgan. Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 872257,3 so'mni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 13,4 %ga o'sdi;

• sanoatda 27 ta korxonada 10467 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 9,0 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 68669625,7 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 10,6 %ni) tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1093430,5 so'mni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 1,4 %ga o'sdi;

• sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 224 ta muassasada 21157 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 18,1 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 105013072,1 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 16,3 %ni) tashkil etgan. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 838663,7 so'mni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 24,3 %ga o'sdi;

• savdoda 25 ta korxonada 2519 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,2 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 12209478,3 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 1,9 %ni) tashkil etgan. Savdo sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 845852,4 so'mni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 10,8 %ga o'sdi;

• moliyaviy va sug'urta faoliyatida 29 ta muassasada 2696 nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,3 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 31951232,5 ming so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 5,0 %ni) tashkil etgan. Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2002437,0 so'mni tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 34,6 %ga o'sdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2017 yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 934602,6 so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2016 yilning mos davriga nisbatan 17,5 % ga o'sishni ta'minladi.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi
(2017 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari)

	Korxona va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, kishi	Ish haqi fondi, ming. so'm	O'rtacha oylik ish haqi, so'm
Xorazm viloyati - jami	1570	116595	644548894,3	934602,6
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	27	10467	68669625,7	1093430,5
Qurilish	17	2234	12235345,8	925839,9
Savdo	25	2519	12209478,3	845852,4
Tashish va saqlash	7	3033	24348265,7	1342194,6
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	11	77	293588,2	635472,3
Axborot va aloqa	18	817	4728721,4	966739,3
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	29	2696	31951232,5	2002437,0
Ta'lim	915	54791	283401643,7	872257,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	224	21157	105013072,1	838663,7
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	40	1604	6931314,7	732059,0
Boshqa faoliyat turlari	257	17200	94766606,2	918281,1




2017 yil yanvar-iyun oylarida 2016 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati moliyaviy va sug'ruta faoliyatida 34,6 %, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 24,3 %, San'at, ko'ngil ochish va dam olishda 21,9 % kuzatildi.

2017 yil yanvar-iyun oylarida viloyatdagagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan moliyaviy va sug'urta faoliyatida 114,2%ga, sanoatda 17,0 %ga, tashish va saqlashda 43,6 % ga yuqorini tashkil etgan bo'lsa, aksincha yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmarlarda 32,0 % ga, sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 10,3 %ga, ta'limda 6,7 %ga, San'at, ko'ngil ochish va dam olishda 21,7 % ga viloyatdan kamni tashkil etmoqda.



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2017 yil yanvar-iyun, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)





O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyat hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Urganch shahrida **1098932,7** so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **(117,6 %)** , Xazarasp tumanida **951321,7** so'mni (**101,8 %**) tashkil etgan bo'lsa, Gurlan tumanida **798683,1** so'mni (**85,4 %**), Yangibozor tumanida **790365,6** so'mni (**84,6 %**) tashkil etib, boshqa tumanlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2017 yil yanvar-iyun, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2017 yil yanvar-iyun oylarida **370842,9** so'mni tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.

Xorazm viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
 (yanvar-iyun; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik
 sub'ektlaridan tashqari, so'm)

	2016 yil	2017 yil	O'sish sur'ati, %
Xorazm viloyati	790216,7	934602,6	117,5
Urganch shahar	924921,7	1098932,7	117,8
Xiva shahar	-	-	-
<i>tumanlar:</i>			
Bogot	710753,5	846058,0	117,9
Gurlan	692781,7	798683,1	114,5
Qo'shko'pir	673971,6	858838,5	127,2
Urganch	766483,2	862909,8	111,6
Xazorasp	821850,4	951321,7	114,1
Xonqa	763134,5	895554,8	116,2
Xiva	731971,3	858030,7	116,7
Shovot	646643,2	806758,7	124,9
Yangiariq	739389,1	844448,2	113,5
Yangibozor	695641,1	790365,6	113,7



Xorazm viloyati
Demografiya va mehnat statistikasi bolimi